



**ICHKI ISHLAR ORGANLARINING JINOYATCHILIKKA QARSHI
KURASHISHDAGI USTUVOR VAZIFALARI VA DOLZARB
YO‘NALISHLARI**

Djuraev Farxod Eshboevich
IIV Akademiyasi mustaqil izlanuvchisi

Annotatsiya:

Maqolada ichki ishlar organlarining jinoyatchilikka qarshi kurashishdagi ustuvor vazifalari va dolzarb yo‘nalishlari atroflicha tahlil qilinadi. Xususan, yurtimizda amalga oshirilayotgan sud-huquq islohotlar, “Tezkor-qidiruv faoliyati to‘g‘risida”gi qonun normalari hamda ichki ishlar organlari zimmasiga yuklatilgan vazifalar mazmun-mohiyati yoritib berilgan. Jinoyatlarning oldini olish, ularni aniqlash, fosh etish va aybdor shaxslarni topishda shaxsiy izquvarlikning o‘rni va ahamiyati ilmiy-nazariy hamda amaliy jihatdan asoslab berilgan. Shu bilan birga, qidiruv ishlari, xavfsizlikka tahdid soluvchi shaxs va hodisalar to‘g‘risida axborot to‘plashning ahamiyati ko‘rsatilgan. Muallif shaxsiy izquvarlikka mualliflik ta‘rifi berib, uning ichki ishlar organlari faoliyatidagi samaradorlik omili sifatidagi o‘rnini belgilab bergan.

Kalit so‘zlar : ichki ishlar organlari, jinoyatchilik, tezkor-qidiruv faoliyati, shaxsiy izquvarlik, profilaktika, fosh etish, qidiruv ishlari, huquqiy islohotlar, xavfsizlik, korrupsiyaga qarshi kurash, uyushgan jinoyatchilik, huquq va erkinliklar.

**ПРИОРИТЕТНЫЕ ЗАДАЧИ И АКТУАЛЬНЫЕ НАПРАВЛЕНИЯ
ОРГАНОВ ВНУТРЕННИХ ДЕЛ В БОРЬБЕ С ПРЕСТУПНОСТЬЮ**

Джураев Фарход Эшбоевич
соискатель Академии МВД Республики Узбекистан

Аннотация:

В статье всесторонне рассматриваются приоритетные задачи и актуальные направления деятельности органов внутренних дел в сфере борьбы с преступностью. Особое внимание уделено проводимым в стране судебно-



правовым реформам, положениям Закона «Об оперативно-розыскной деятельности», а также содержанию и сущности обязанностей, возложенных на органы внутренних дел. Научно-теоретически и практически обоснована роль и значение личного сыска в предупреждении, выявлении и раскрытии преступлений, а также в установлении лиц, их совершивших. Дополнительно показана важность проведения розыскных мероприятий и сбора информации о лицах и событиях, представляющих угрозу общественной и государственной безопасности. Автор предлагает собственное определение личного наблюдения и раскрывает его значение как фактора, повышающего эффективность деятельности органов внутренних дел.

Ключевые слова: органы внутренних дел, преступность, оперативно-розыскная деятельность, личное наблюдение, профилактика, раскрытие, розыскные мероприятия, правовые реформы, безопасность, борьба с коррупцией, организованная преступность, права и свободы.

PRIORITY TASKS AND CURRENT DIRECTIONS OF INTERNAL AFFAIRS AGENCIES IN THE FIGHT AGAINST CRIME

Juraev Farkhod Eshboevich

Applicant for the Academy of the Ministry of
Internal Affairs of the Republic of Uzbekistan

Abstract:

The article comprehensively examines the priority tasks and current areas of activity of internal affairs bodies in the field of combating crime. Particular attention is paid to the judicial and legal reforms carried out in the country, the provisions of the Law "On operational-search activity", as well as the content and essence of the duties imposed on the internal affairs bodies. The role and importance of personal investigation in the prevention, detection and disclosure of crimes, as well as in identifying the persons who committed them, are scientifically, theoretically and practically substantiated. In addition, the importance of conducting search activities and collecting information about persons and events that pose a threat to public and



state security is shown. The author offers his own definition of personal surveillance and reveals its importance as a factor that increases the effectiveness of the internal affairs bodies.

Keywords: internal affairs bodies, crime, operational-search activity, personal surveillance, prevention, disclosure, search activities, legal reforms, security, fight against corruption, organized crime, rights and freedoms

Mamlakatimizda 2022–2026 yillarga mo‘ljallangan Taraqqiyot strategiyasi [1] doirasida sud-huquq tizimini takomillashtirish, shaxsning huquq va erkinliklariga rioya etilishini ta‘minlash, qonun ustuvorligini mustahkamlash, jinoyatchilikka qarshi samarali kurash olib borish hamda javobgarlikning muqarrarligini ta‘minlashga qaratilgan izchil va bosqichma-bosqich islohotlar amalga oshirilmoqda. Ushbu islohotlar mamlakatimizda huquqiy davlat barpo etish va fuqarolarning huquqiy himoyasini yanada kuchaytirishga xizmat qilmoqda.

Jinoyatchilikka qarshi kurashish, jinoyatlarni sodir etgan shaxslarni qidirib topish ichki ishlar organlarining tezkor xodimlari zimmasidagi eng muhim va ustuvor vazifalardan biri hisoblanadi. Bu vazifa nafaqat ularning xizmat burchi, balki jamiyatda qonuniylik va tartibotni ta‘minlash, fuqarolarning huquqlari va xavfsizligini himoya qilishda hal qiluvchi ahamiyat kasb etadi.

Aynan shuning uchun ham, ushbu vazifalarning huquqiy asosi sifatida qabul qilingan “Tezkor-qidiruv faoliyati to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasi Qonunining 4-moddasida jinoyatlarning oldini olish, ularni aniqlash va fosh etish, shuningdek, aybdor shaxslarni topish va jazoga tortish tizimida tezkor-qidiruv tadbirlarining o‘rni va mazmuni aniq va ravshan belgilab berilgan [2].

Tezkor-qidiruv faoliyatining vazifalariga jinoyatchilikka qarshi kurash maqsadiga erishish yo‘lidagi muayyan bosqich sifatida qarash lozim. Sharhlanayotgan moddada tezkor-qidiruv faoliyati vazifalarining majmui ifodalangan bo‘lib, ular o‘ziga xosligi tufayli ushbu faoliyatni davlat organlari huquqni muhofaza qilish faoliyatining boshqa turlaridan ajratib turadi. Tezkor-qidiruv faoliyatining mazkur vazifalari umumiy xususiyatga ega bo‘lib, tezkor-qidiruv faoliyatining ayrim sub’ektlari faoliyatini tartibga soluvchi normativ-huquqiy hujjatlarda aniq-



lashtiriladi [3].

Qonunda moddaning matnida tezkor-qidiruv faoliyatining barcha vazifalarini to'rtta asosiy guruhga ajratgan bo'lib, ularning har biri o'z amalga oshirish usullariga ega. Jumladan,

Birinchi guruhga inson huquqlari, erkinliklari va qonuniy manfaatlarini, shaxs va mulk daxlsizligi hamda jamiyat va davlat xavfsizligini ta'minlash kiradi. Qonunda inson huquq va erkinliklariga ustunlik berilib, ularni jinoiy tajovuzlardan himoya qilish, mulkka yetkazilgan zararni qoplash uchun shart-sharoit yaratish va shaxs, jamiyat hamda davlatning hayotiy muhim manfaatlarini tashqi va ichki tahdidlardan muhofaza etish tezkor-qidiruv faoliyatining asosiy vazifalaridan hisoblanadi.

Ikkinchi guruh — eng murakkab yo'nalish bo'lib, u to'rtta vazifani qamrab oladi: jinoyatlarni oldini olish, aniqlash, barham berish va fosh etish. Jinoyatlarni oldini olish umumiy, maxsus, yakka tartibdagi va viktimologik profilaktika shaklida amalga oshiriladi hamda jinoyatga imkon beruvchi sabab va shart-sharoitlarni bartaraf etishga qaratilgan ustuvor vazifa hisoblanadi. Jinoyatlarni aniqlash esa asosan yashirin (latent) jinoyatlarni fosh etishni nazarda tutadi, chunki ular jamiyat va davlat manfaatlariga jiddiy tahdid soladi; bu jarayonda shaxslarni aniqlash, ularning qilmishlarida jinoiy tarkib mavjudligini belgilash va jabrlanuvchini aniqlash kabi elementlar tezkor izlov orqali bajariladi. Jinoyatlarga barham berish shaxsni qilmishni tugallash imkoniyatidan mahrum qilish, zararli oqibatlarini oldini olish bilan bog'liq bo'lib, odatda tayyorgarlik yoki suiqasd bosqichida amalga oshiriladi. Jinoyatlarni fosh etish esa aybdor shaxslarni aniqlash, dalillar to'plash va ularni jinoiy javobgarlikka tortish imkonini beruvchi choralar tizimidan iborat bo'lib, u jinoyat-protsessual harakatlar bilan uyg'un holda amalga oshiriladi. Shu tarzda, ushbu vazifalar tizimi jinoyatchilikka qarshi kurashda o'zaro bog'liq va kompleks tarzda inson, jamiyat hamda davlat xavfsizligini ta'minlashga xizmat qiladi.

Uchini guruh, bu qidiruv ishiga bag'ishlangan. Qidiruv — bu, tezkor-qidiruv faoliyatining muhim vazifasi bo'lib, surishtiruv, tergov va suddan yashirinib yurgan gumon qilinuvchi, ayblanuvchi va sudlanuvchilarni, jazoni ijro etishdan qochgan mahkumlarni, bedarak yo'qolgan fuqarolarni hamda qonun bilan belgilangan boshqa toifadagi shaxslarni topish va zarurat bo'lganda ularni ushlashni ta'minlaydi.



Qidiruv tadbirlari doirasiga voyaga yetmaganlar, ruhiy kasallar, qarindoshlari bilan aloqasi uzilgan shaxslar, shuningdek harbiy xizmatdan qochganlar va sud qarori bo'yicha turli majburiyatlardan bo'yin tovlayotgan qarzdorlarni aniqlash ham kiradi. Shuningdek, tanib olinmagan murdalar shaxsini aniqlash ham qidiruv vazifasiga taalluqlidir. Ushbu vazifa qidiruv bo'linmalari orqali amalga oshirilib, ichki ishlar organlarining asosiy yo'nalishlaridan biri hisoblanadi.

To'rtinchi guruhga, tezkor-qidiruv faoliyatining oxirgi vazifasi ya'ni shaxs, jamiyat va davlat xavfsizligiga tahdid soluvchi shaxslar, hodisalar va harakatlar haqida axborot to'plash kiradi. Bu vazifa tezkor tadbirlar va huquqni muhofaza qiluvchi organlarga yordam beruvchi shaxslar ko'magidan foydalanish orqali amalga oshiriladi. Xavfsizlikka oid ma'lumotlarni yig'ish ushbu faoliyatning majburiy elementi bo'lib, asosan tinchlik va insoniyat xavfsizligiga, davlat mustaqilligi va iqtisodiy asoslariga, shuningdek ekologiya va jamiyat xavfsizligiga qarshi jinoyatlarni aniqlash orqali ta'minlanadi.

Mazkur moddada qayd etilgan vazifalar, birinchi navbatda, tezkor xizmat xodimlaridan yuqori malaka, chuqur kasbiy bilim, huquqiy bilimdonlik va holatni tezkor baholay olish kabi ko'nikmalarni talab etadi. Zero, jinoyatlarni o'z vaqtida fosh etish va jinoyatchini qo'lga olish– bu faqat huquqiy talab emas, balki davlatning jamiyat oldidagi ma'naviy mas'uliyatidir.

Jinoyatlarni aniqlash va fosh etishda qo'llaniladigan samarali usullardan biri albatta, bu shaxsiy izquvarlik hisoblanadi. Ushbu usul jinoyat sodir etilgani to'g'risidagi dastlabki ma'lumotlarni yig'ish, gumon qilinuvchi shaxslarni aniqlash va ularni qidirib topishda muhim ahamiyat kasb etadi.

Ichki ishlar organlari xodimlari tomonidan qo'llaniladigan shaxsiy izquvarlik muayyan maqsadlar, vazifalar, usullar va tezkor-qidiruv faoliyati doirasida tadbirlarni amalga oshirish taktikasini o'z ichiga oladi. Ichki ishlar organlari xodimlarining shaxsiy izquvarlik usullaridan foydalanishi ushbu xodimlardan mazkur usullarni tezkor-xizmat faoliyatida qo'llash bo'yicha chuqur nazariy bilimlar va amaliy ko'nikmalarga ega bo'lishlarini talab etadi.

Shaxsiy izquvarlik faqat tezkor xizmatlar bilan cheklanib qolmay, balki ichki ishlar tizimining boshqa tarkibiy bo'linmalarida ham keng qo'llanilishi mumkinligi ta'kidlangani dolzarb va amaliyotga yaqin yondashuvdir. Chunki



huquqbuzarliklarning oldini olish, jinoyatlarni aniqlash va fosh etishda har bir xizmatning o'ziga xos vazifalari mavjud bo'lib, shaxsiy izquvarlik – bu vazifalarni samarali bajarishga ko'maklashadigan muhim usul hisoblanadi.

“Izquvarlik” so'zining “aniqlash”, “qidirish” va “topish” mazmunida anglanishi esa bu faoliyatning tub vazifalarini – ya'ni ma'lum bir jinoyatga daxldor shaxs yoki holatni topish va fosh etishni ko'rsatadi.

Shuni ta'kidlash lozimki, shaxsiy izquvarlik tezkor-qidiruv faoliyatining tarkibiy qismi hisoblanadi va uni amalga oshirish faqatgina O'zbekiston Respublikasining “Tezkor-qidiruv faoliyati to'g'risida”gi Qonunida nazarda tutilgan maqsad va vazifalarni bajarish doirasida qonuniy asoslar mavjud bo'lgan taqdirdagina mumkin bo'ladi.

TQFning samarali usuli sifatida shaxsiy izquvarlik jinoyatlarning oldini olish, ularni aniqlash va fosh etish, shuningdek, yashiringan jinoyatchilarni topishga qaratilgan tadbirlarni tashkil etishda muhim ahamiyat kasb etadi. Mazkur usul doirasida tezkor xodim tomonidan jinoyatchi yoki shubhali shaxslarni vizual tanish, tezkor kuzatuv olib borish, ma'lumot to'plash tezkor-qidiruv tadbirlarni amalga oshirish kabi harakatlar amalga oshiriladi [4].

O'zbek tilining izohli lug'atida “izquvar” atamasi –iz qidirib, izdan tushib topish bilan shug'ulanuvchi shaxs sifatida, “shaxsiy” so'zi esa – tegishli, sub'ektiv ; xususiy, shaxsning o'ziga tegishil bo'lgan, shu shaxsning o'zi foydalanadigan, xususiy, o'z ya'ni muayyan sub'ektiga tegishli, xususiy yoki faqat o'sha shaxs tomonidan foydalaniladigan narsa yoki holat ma'nosida izohlangan [5].

Yuqorida bayon etilgan nazariy qarashlar hamda amaliy tahlillar, xususan, o'tkazilgan so'rovnoma natijalariga tayanib, «shaxsiy izquvarlik» tushunchasiga mualliflik ta'rifi ishlab chiqildi. Unga ko'ra, shaxsiy izquvarlik – bu tezkor xodim tomonidan mustaqil ravishda, ya'ni xizmat vazifasi doirasida to'g'ridan-to'g'ri shaxsan amalga oshiriladigan, jinoyatlarni oldini olish, fosh etish va jinoyatchilarni aniqlashga qaratilgan tezkor-qidiruv faoliyatining maxsus shaklidir. U turli yashirin tadbirlarni (masalan, shaxsni kuzatish, uni tanish, shaxsiy aloqa o'rnatish, muomala orqali axborot to'plash va h.k.) o'z ichiga oladi va umumiy tezkor-qidiruv usullari bilan uyg'unlikda foydalaniladi. Mazkur faoliyat jinoyatlarning oldini olish, ularni



fosh etish, jinoyatchilar shaxsini aniqlash, dalillar to'plash hamda jinoiy faoliyatning ichki mexanizmlarini ochib berishga qaratilgandir.

Shaxsiy izquvarlik doirasida tezkor xodim shaxsni kuzatish, uni tanish, ishonchli aloqa o'rnatish, yashirin muloqotlar olib borish, muomala orqali axborot yig'ish, shaxslararo munosabatlardan foydalanish kabi individual va maxsus vosita-usullardan foydalanadi. Shu bilan birga, ushbu faoliyat turi umumiy TQF usullari bilan uyg'unlikda amalga oshirilib, jinoyatchilikka qarshi kurashda kompleks yondashuvni ta'minlaydi. Shaxsiy izquvarlikning samaradorligi, avvalo, tezkor xodimning kasbiy tajribasi, tashabbuskorligi, shaxsiy intizomi, psixologik tayyorgarligi hamda inson psixologiyasini teran anglash qobiliyatiga bevosita bog'liqdir.

Shu sababli, ichki ishlar organlari xodimlarining tezkor-xizmat faoliyatida shaxsiy izquvarlikni qo'llash samarali ishning muhim tarkibiy qismi hisoblanadi. Ichki ishlar organlari xodimlari o'zlarining tezkor-xizmat faoliyatida shaxsiy qidiruvni qo'llash bo'yicha nazariy bilimlarini va amaliy ko'nikmalarini kengaytirishi lozim. Bu esa ularga o'z kasbiy vazifalarini yuqori malaka bilan bajarish imkonini beradi.

Xulosa qilib aytish mumkinki, shaxsiy izquvarlik bu, ichki ishlar organlari xodimlari tomonidan jinoyatlarni aniqlash, ularning oldini olish va fosh etish, yashiringan jinoyatchilarni qidirib topish hamda tezkor-qidiruv faoliyatining boshqa vazifalarini bajarish maqsadida oshkora yoki yashirin tarzda shaxsan amalga oshiriladigan tadbir va usullar majmuasini ifoda etadi. Shaxsiy izquvarlikni qo'llash muayyan vaziyat va holatlar bilan bog'liq bo'lib, u ichki ishlar organlarining jinoyatchilikka qarshi kurashishdagi dolzarb vazifalarini – jamiyat va davlat xavfsizligini ta'minlash, huquqbuzarliklarning profilaktikasini kuchaytirish, uyushgan jinoyatchilik va korrupsiyaga qarshi samarali kurashish, shuningdek fuqarolarning huquq va erkinliklarini himoya qilish kabi ustuvor yo'nalishlarni amalga oshirishda muhim ahamiyat kasb etadi.



Foydalanilgan adabiyotlar

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022- yil 28-yanvardagi “2022 – 2026 yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida”gi PF-60-son Farmoni. <https://lex.uz/docs/5841063> (murojaat vaqti: 14.09.2025).
2. O‘zbekiston Respublikasining 2012-yil 25-dekabrdagi “Tezkor-qidiruv faoliyati to‘g‘risida”gi 344-O‘RQ sonli Qonuni <https://www.lex.uz/acts/2107763> (murojaat vaqti: 22.08.2025).
3. Hamdamov A.A., Saitbaev T.R., Gordeev S.N., Rashitxodjaev R.T., O‘zbekiston Respublikasining “Tezkor-qidiruv faoliyati to‘g‘risida”gi Qonuniga sharh. 2015. B-23
4. Лаевский Г.Т., Светков Н.А., Утевский А.Б. Личный сыск. – М., 1992.
5. Begmatov E, Madvaliev A. va boshq. O‘zbek tilining izohli lug‘ati.”O‘zbekiston milliy ensiklopediyasi” Davlat ilmiy nashriyoti. Toshkent. B-183 va B-557